

Loyiha nomi: “Ko‘rish imkoniyati cheklangan talabalar uchun tilshunoslik fanlari bo‘yicha audiokitob ta’minotini yaratish”.

Loyiha raqami: A-1-61.

Loyihaning maqsadi ko‘zi ojiz talabalarning tilshunoslik fanlariga oid o‘quv-ilmiy adabiyotlardan mustaqil foydalanishi uchun sohaga doir audioma’lumotlar bazasini shakllantirish va shu orqali ularning lisoniy, ijodiy tafakkur salohiyatini yuksaltirish, kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishdir.

Fan-texnika jadal taraqqiy etib borayotgan bugungi kunda mamlakatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada belgilangan chora-tadbirlardan ko‘zlangan asosiy maqsad ularning sog‘lom kishilar bilan ijtimoiy integratsiyalashuvi jarayonini yanada rivojlantirishdir. Nogironligi bo‘lgan shaxslarning muayyan qismini ko‘zi ojiz talabalar tashkil qiladi. ularning o‘quv-ilmiy adabiyotlardan foydalanishi uchun qulaylikni yuzaga keltirishdagi tezkor usullardan biri audiokitob ta’minotini yaratishdir. Shuni e’tiborga olgan holda 2015-2017-yillarda filologiya fanlari doktori Munavvara Qurbanova rahbarligida davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida bajarilgan A-1-61 raqamli “Ko‘rish imkoniyati cheklangan talabalar uchun tilshunoslik fanlari bo‘yicha audiokitob ta’minotini yaratish” mavzusidagi amaliy grant loyihasi doirasida 14 nomdagi audiokitob tayyorlandi. Loyiha mahsulotlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mult agentligidan mualliflik guvohnomalari olinib, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istondagi axborot-resurs markazlari hamda “ZiyoNet” ta’lim portaliga taqdim etildi.

Loyiha doirasida tayyorlangan “O‘zbek tili tarixi”, “Tilshunoslik nazariyasи”, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Sotsiolingvistika”, “Psixolingvistika” kabi fanlarga oid qator darslik, o‘quv qo‘llanmalar, kurs ishi, magistrlik dissertatsiyasini yozishga doir uslubiy ko‘rsatmalar va ularning audiokitob shaklidagi nusxalari, tilshunoslik fanlariga oid monografiyalar, dissertatsiyalar, nufuzli jurnallarda e’lon qilingan ilmiy maqolalar mazmunini aks ettiruvchi audioma’lumotlar to‘plamlari ko‘zi ojiz talabalarning lisoniy bilimi va qobiliyatini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish,

ularni mutaxassislik fanlari bo‘yicha ilmiy pedagogik faoliyatga yo‘naltirish, talaba bilan o‘qituvchi o‘rtasidagi fikrlash jarayonlarining uyg‘unligiga erishishni ta’minlaydi. Bu esa o‘z navbatida ko‘rish imkoniyati cheklangan bo‘lsa-da, nurli kelajak sari intilayotgan talaba yoshlarning fan va ta’lim sohasi taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladigan, ma’naviy jihatdan barkamol shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda mazkur loyiha natijalaridan nafaqat ko‘zi ojiz shaxslar, balki ko‘zi sog‘lom talabalar va tadqiqotchilar ham samarali foydalanib kelmoqdalar. Ushbu loyiha doirasida tayyorlangan audiokitoblarni “FILOLOGIYA_MEDIAMANBALAR” telegram kanalidan ham yuklab olish mumkin.